



## SOLIQ MAJBURIYATINING HUQUQIY TABIATI

Ergashev Bahodir Abdurasulovich

Tadqiqotchi

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.10653435>

### ARTICLE INFO

Received: 06<sup>th</sup> February 2024

Accepted: 12<sup>th</sup> February 2024

Online: 13<sup>th</sup> February 2024

### KEY WORDS

*Soliq tizimi, soliq ma'muriyatchiligi, soliq konsepsiyasi, soliq majburiyati, soliqlar turlari, soliq islohoti, soliq ma'muriyatchiligi, soliq to'lovi, majburiy to'lovlar.*

### ABSTRACT

*Mazkur maqolada soliq majburiyatining huquqiy tabiati nazariy-amaliy jihatlarini tadqiq etilgan. Soliq qonunchiligini takomillashtirish bo'yicha takliflar berilgan.*

Soliq majburiyati jamiyatning barcha a'zolari manfaatlarini yo'lida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunchiligida davlat tomonidan belgilab qo'yilgan hamda har bir yuridik yoki jismoniy shaxs uchun lozim xulq-atvorni belgilab qo'ygan va lozim darajada bajarmaganlik uchun davlat tomonidan majburlov choralari bilan ta'minlangan konstitutsiyaviy ommaviy-huquqiy majburiyati (burchi) hisoblanadi.

Ushbu majburiyat yuridik faktlar, huquqiy normalar talablari asosida belgilanadi va murakkab dinamik struktura bilan tavsiflanib, uning o'ziga xosligi shundaki, yuridik faktlar to'planib borishi bilan huquqiy munosabatlar tuzilishi rivojlanadi, o'zgartiriladi: huquqlar va majburiyatlar bir-birini o'rnini bosadi, yangilari bilan to'ldiriladi, o'zgaradi va hokazo. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 85-moddasiga muvofiq soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari bilan soliq to'lovchilar zimmasiga yuklatilgan soliqlarni va yig'imlarni to'g'ri hisoblab chiqarish hamda o'z vaqtida to'lash majburiyati ularning soliq majburiyatidir.

Har bir soliqqa nisbatan soliq majburiyati soliq to'lovchiga soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan ushbu soliqni to'lashni nazarda tutuvchi holatlar yuzaga kelgan paytdan e'tiboran yuklatiladi. Shuningdek, qayd etish lozimki, soliqlar va yig'imlar Soliq kodeksi bilan belgilanadi, o'zgartiriladi yoki bekor qilinadi.

Soliq majburiyatini tashkiliy burchga mohiyatan o'xshashligini S.V.Zapolskiy qayd etganidek: "Soliq qonunchiligi yoki unga o'xshash qonun, qonun bilan qabul qilingan paytda mavjud bo'lmagan, faqatgina ushbu qonunda ko'zda tutilgan fakt yuzasidan kelgusida paydo bo'ladigan huquqiy munosabatlarning modelidir. Huquqiy munosabat mavjud bo'lmasidan huquq va majburiyatlar mavjud bo'lishi mumkin emasligi kabi, byudjetga pul mablag'larini to'lash majburiyati huquqiy munosabat paydo bo'lgan vaqtdan boshlanadi, bundan oldin esa



ehtimoliy (tashkiliy) majburiyat sifatida ko'rilishi mumkin, xuddi unga tegishli huquqiy talab kabi"<sup>1</sup>.

Bu fikr juda muhim, chunki tashkiliy majburiyat va huquqiy munosabat o'rtasidagi farqni ajratish kerak. Bunday majburiyatning roli soliq-huquqiy munosabatni tayyorlash, vujudga kelishi mumkin bo'lgan buzilishlar oldini olish va zarur tashkiliy tadbirlarni amalga oshirishdan iborat.

Tashkiliy majburiyatni bo'lg'usi soliq to'lovchining bo'lg'usi majburiyatlari va soliq organining huquqiy munosabatlardagi bo'lg'usi huquqlarini o'z ichiga olgan tashkiliy holat sifatida tavsiflash mumkin. Shu munosabat bilan aytish lozimki, ehtimoliy soliq to'lovchining ayrim tashkiliy majburiyatlari, masalan, buxgalteriya hisobi va soliq hisobotlarini taqdim etish, soliq to'lashga majburlovchi faktlar mavjudligidan qat'i nazar, bajariladi. Davlat vakolatli organi soliq to'lash uchun asoslar paydo bo'lgan taqdirda soliq to'lovchi o'z majburiyatini aniq va to'liq bajarishi uchun asosni avvaldan tayyor qilishi uchun qonunda bunday normalar bo'lishi va aniq belgilanishi kerak.

Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlarda "soliq to'lash burchi" atamasi bilan birga "soliq majburiyati" atamasidan faol foydalanilmoqda.

Hozirgi kunda bir qator olimlar: D.V. Vinnitskiy, S.V. Zapol'skiy, M.V. Karaseva, I.A. Sindeliani va boshqalar tomonidan "soliq to'lash burchi", "soliq to'lash bo'yicha majburiyati" o'rniga, "soliq majburiyati" atamasidan foydalanilgan<sup>2</sup>. Bizningcha fikrimizcha, atamaning bunday qo'llanilishi munozarali.

N.P. Kucheryavenkoning fikricha, "majburiyat so'zi soliq to'lovchining so'zsiz va birlamchi ahamiyat kasb etuvchi majburiyatlar kompleksi xususiyatini aks ettira olmaydi. Soliq to'lovchilarning soliq va to'lovlarni to'lash bilan bog'liq bo'lgan butun majburiyatlar tizimini umumlashtiruvchi kategoriya sifatida "soliq to'lash burchi" atamasidan foydalanish to'g'ri bo'lar edi<sup>3</sup>.

Soliq majburiyati fuqarolik-huquqiy javobgarlikdan farqli ravishda, garchi qisman mulkiy bo'lsada (masalan, ro'yxatga olish harakatlari mulkiy tusga ega emas), ammo xususiy-huquqiy emas, balki ommaviy-huquqiy tusga ega.

D.V. Vinnitskiy "soliq majburiyati" va "soliq burchi" atamalarini batafsil o'rganib chiqib, o'z tadqiqotlarida sud "soliq majburiyati", "soliq to'lash bo'yicha konstitutsiyaviy burch", "konstitutsiyaviy soliq burchi" kabi tushunchalarni joriy etishi va foydalanishi hamda bu tushunchalar tez-tez chalkashlik keltirib chiqarishga e'tibor qaratadi<sup>4</sup>.

Mazkur atamalardan foydalanishning afzallik va kamchiliklari haqida M.V. Karaseva ham munosabatini bildirib o'tgan. Uning tahlillari quyidagicha: fuqarolik-huquqiy majburiyat bilan

<sup>1</sup> Запольский С.В. Дискуссионные вопросы теории финансового права. М : РАП, Эксмо, 2008. – С.115.

<sup>2</sup> Винницкий Д.В. Налоговое обязательство и система налогового обязательственного права //

Законодательство.2003. №7; Запольский С.В. О системе органов, администрирующих государственные доходы // Субъекты советского административного права: Сб. науч. трудов СЮИ. Свердловск, 1985, Запольский С.В. О предмете финансового права // Известия высш. учеб. заведений. Сер.: Правоведение. 2002. № 5; Карасева М.В. Финансовое правоотношение. М.: Издательство НОРМА, 2001. С.271-283; Цинделиани И.А. Налоговое обязательство в системе налогового права России // Финансовое право. 2005. №9; Налоговое право / Под ред. С.Г. Пепеляева. М., 2000. С. 138-139.

<sup>3</sup> Кучерявенко Н.П. Налоговая обязанность: Содержание и особенности правового регулирования // Правоведение. 2002. № 5 (244).

<sup>4</sup> Винницкий Д.В. Налоговое обязательство и система налогового обязательственного права//Законодательство. 2003. № 7.



birga “solliq majburiyati” kategoriyasidan foydalanish mumkinligiga dalillar quyidagilardan iborat: umumiy iqtisodiy asos; mulk huquqi bilan bevosita aloqadorlik; mulkiy xarakter; majburiyat munosabatlari tomonlarining qat'i belgilanganligi, ya'ni uning nisbiy xarakteri; maqsadga muvofiqlik; fuqarolik majburiyatining ajralmas qismi sifatidagi sanksiya.

Uning fikricha, fuqarolik-huquqiy majburiyatni solliq majburiyatidan ajratuvchi belgilar ham mavjud: solliq majburiyati faqat qarzdorning (solliq to'lovchining) kreditor foydasiga aniq harakatlarni amalga oshirish majburiyatini ko'zda tutadi va harakatlaridan voz kechishni nazarda tutmaydi; majburiyat bir tomonlama tusga ega; kreditorning talab qilish sub'ektiv huquqi hokimiyat talabidir; majburiyat bo'yicha ijroni qabul qilish solliq organi (mahalliy o'zini o'zi boshqarish organi timsolida munitsipal tuzilma) timsolida davlat majburiyati hisoblanadi; solliq majburiyatida kreditorni o'zgartirish mumkin emas; qarzni boshqasiga o'tkazishga ham yo'l qo'yilmaydi.

M.V. Karaseva, yangi “solliq majburiyati” kategoriyasi “majburiyat” fuqarolik-huquqiy kategoriyasi asosiy belgilariga ega ekanligini, solliq huquqiy munosabati esa majburiyat munosabatining bir turidir, degan xulosaga keladi<sup>5</sup>.

Ushbu keltirilgan fikrlardan tashqari, quyidagilarni hisobga olish kerak: solliq majburiyatini bajaruvchi shaxs va solliq organlari teng emas va ular o'zaro kelishmaydi, ya'ni hech qanday ixtiyoriylik yo'q; tovar almashinuvi yo'q; solliq to'lash majburiyati ommaviy-huquqiy tusga ega va shartnomadan kelib chiqmaydi. Bu yerda fuqarolik huquqiy munosabatdagi bir tomonning irodasi bilan huquqiy munosabatning boshqa tomonining aniq majburiyati mos kelmagan va solliq majburiyati avvaldan mavjud bo'lgan solliq huquqiy munosabati bilan o'rtadagi farqni qayd etish muhimdir.

Solliq munosabatlarning mulkiy xususiyatiga kelsak, fuqarolik huquqi sohasidagi mutaxassislarning, qo'shilish mumkin bo'lgan quyidagi nuqtai nazarini keltirib o'tish: “Davlat boshqaruvi organlarining pul mablag'larni to'plash va ularni umumdavlat ehtiyojlar uchun taqsimlash jarayonida yuzaga keladigan mulkiy munosabatlar, qiymat belgisidan mahrumdir. Ushbu munosabatlar doirasida pullar qiymat o'lchovi sifatida emas, balki to'plash vositasi funksiyasini ado etadi. Ularning harakati bevosita o'zaro ekvivalentsiz, o'zaro baholanmaydigan, shuning uchun ham qiymat xususiyatiga ega bo'lmagan aloqalar orqali amalga oshiriladi”<sup>6</sup>.

Solliq to'lash solliq majburiyatining asosiy qismidir, qolgan harakatlar esa unga nisbatan bog'liq va ikkilamchi xususiyatga ega. Bunda amalga oshirish hajmi va muddati jihatidan bu harakatlar ustuvorlikka ega. Solliq to'lash bilan bog'liq bo'lmagan harakatlar mulkiy hisoblanmaydi. Solliq majburiyatini bajarish faqat qonunda nazarda tutilgan asoslardan kelib chiqadi.

Solliq majburiyatini ijro etish bo'yicha faoliyat, shuningdek solliqlarni boshqaruvchi organlari qarama-qarshi harakatlarini va xattoki, ko'pincha solliq to'lovchining solliq majburiyatini ijro etilishidan avval keladigan harakatlarni ham kiritadi. Bularga solliq va

<sup>5</sup> Карасева М.В. Финансовое правоотношение. М.: Издательство НОРМА, 2001. С.271-283. Гражданское право. Ч.1. Учебник/ Под ред. Ю.К. Толстого, А.П. Сергеева. М.: Изд-во ТЕИС, 1996. – С.13-14.

<sup>6</sup> Карасева М.В. Финансовое правоотношение. М.: Издательство НОРМА, 2001. С.271-283. Гражданское право. Ч.1. Учебник/ Под ред. Ю.К. Толстого, А.П. Сергеева. М.: Изд-во ТЕИС, 1996. С.13-14.



buxgalteriya hisobini yuritish uslubi yotini ishlab chiqish, soliq deklaratsiya blankalarini ishlab chiqish hamda solik to'lovchilarni ta'minlash va boshqalarni kiritish mumkin<sup>7</sup>.

Soliq huquqiy munosabatini majburiyat munosabatining o'ziga xos turi deb ko'radigan bo'lsak, soliq agentining funksiyasi va roli ushbu holatlarga nisbatan ziddiyatli ko'rinadi. Qonunga muvofiq fuqarolik-huquqiy munosabatlarning teng huquqli ishtirokchisini uning roziligisiz jalb etish, tomon roziligisiz unga nisbatan hukmron vakolatlar bilan ta'minlash, "majburiyat" fuqarolik-huquqiy kategoriyasi belgilarini aks ettirishi qiyin.

Bizning fikrimizcha, ijtimoiy munosabatlarga huquq tomonidan yuridik ta'sir etishni ta'minlovchi huquqiy vositalar xilma-xilligi nuqtai nazaridan soliq huquqiy munosabatlar sub'ektlarining sub'ektiv huquqlari va majburiyatlarini, fuqarolik huquqi majburiyatlari kabi muayyan huquqiy munosabatlar tizimiga kiritish zarur emas.

Boshqa huquq sohalaridan to'liq retsepsiya qilish o'rniga, soliq huquqining o'z institutlarini yaratish va rivojlantirish maqsadga muvofiq. D.V.Vinnitskiy shunday deb hisoblaydi: "Soliq majburiyati bu fuqarolik-huquqiy majburiyatning alohida shakli emas, balki ushbu majburiyat tipi (modeli) bo'yicha yaratilgan alohida huquqiy munosabatdir. Demak, bu yerda majburiyat fuqarolik-huquqiy tushunchasi kengayishi haqida emas, balki soliq huquqi tomonidan fuqarolik huquqida ishlab chiqilgan majburiyat yuridik shaklining ba'zi elementlarini qabul qilishni ko'rish mumkin"<sup>8</sup>.

G.V.Petrovaning fikricha, "...xorijiy davlatlarning zamonaviy soliq qonunchiligi noaniqliklar va mavhumliklarning oldini olish uchun fuqarolik-huquqiy atamalar bilan bir xil bo'lishiga intilmaydi, balki davlatda qabul qilingan iqtisodiy rivojlanish doktrinasini hisobga olgan holda o'z atamalarini mazmunini batafsil belgilash yo'lidan boradi"<sup>9</sup>.

Ikki huquq sohasi – fuqarolik va soliq huquqi doimo bir-biriga singib ketishi hollarida. Uzoq vaqtdan beri ishlab chiqilgan fuqarolik huquqiy majburiyat institutini qo'llash qanchalik jozibador bo'lishidan qat'i nazar, o'xshash atamalardan foydalanish chalkashlik va noto'g'ri talqin keltirib chiqaradi. Taraqqiy etib borayotgan soliq qonunchiligi imkon qadar, maxsus soliq atamalarini shakllantirishni talab qiladi.

Soliq majburiyati soliq qonunchiligiga muvofiq vujudga keladigan, soliqni to'lash bilan bog'liq bir-biriga bog'liq muayyan protsessual harakatlarni o'z ichiga oladi.

Ularga quyidagilar kirishi mumkin: yuridik shaxsni, yakka tartibdagi tadbirkorni va hokazolarni ro'yxatdan o'tkazish; soliq organida ro'yxatga qo'yish; soliq solish ob'ektlarini aniqlash va yuritish; soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblash; buxgalteriya va soliq hisobotlarini o'z vaqtida yuritish, tuzish, taqdim etish; soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar pul miqdorlarini soliq qonunchiligida belgilangan tartibda va muddatlarda to'lash; soliq organining soliq qonunchiligi buzilishlarini bartaraf etish haqidagi qonuniy talablarini bajarish; soliqlar va to'lovlar to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarni bajarish.

<sup>7</sup> Винницкий Д.В. Российское налоговое право: проблемы теории и практики. СПб.: Юридический центр Пресс, 2003. С.305.

<sup>8</sup> Винницкий Д.В. Налоговое обязательство и система налогового обязательственного права // Законодательство. 2003. №7.

<sup>9</sup> Петрова Г.В. Общая теория налогового права. М.: ИД ФБК-ПРЕСС, 2004. – С. 102



Shaxs qaysi vaqtda soliq to'lovchiga aylanadi, soliq munosabatlari paydo bo'ladi va soliq majburiyati paydo bo'ladi? Soliq kodeksining 15-moddasida belgilanishicha, soliq to'lovchilar va vakolatli organlar soliq munosabatlarining sub'ektlaridir.

Ya'ni sub'ekt yuridik yoki jismoniy shaxs maqomiga ega bo'lishi, soliq solish ob'ekti va soliq solishning boshqa muhim elementlari mavjud bo'lishi kerak. Yuridik shaxs davlat ro'yxatiga olingan paytdan e'tiboran, soliq organida hisobga qo'yishdan qat'i nazar, soliq munosabatlari sub'ektiga aylanadi, aynan shu paytdan boshlab soliq majburiyati vujudga keladi.

Shaxsni fuqarolik huquqi sub'ekti sifatida tan olish uning mulkiy munosabatlarda ishtirok etishi imkoniyati va soliq majburiyati yuzaga kelishini belgilaydi. Xullas, soliq munosabatlari sub'ektlari soliq huquqiy munosabatlariga o'z tashabbusi va irodasi bilan emas, balki tegishli huquq normalariga asosan, ya'ni darhol kirishadi.

Soliq to'lovchi va to'lov to'lovchi zimmasiga konkret turdagi soliq yoki to'lov to'lash majburiyati soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan mazkur turdagi soliq va to'lovni to'lashni nazarda tutgan yuridik faktlar vujudga kelganidan paytdan yuklanadi.

Soliq majburiyat ijrosini yuridik yoki jismoniy shaxs maqomiga bog'lash mumkin, ammo maqomning o'zi soliq to'lovchini yuzaga keltirmaydi. Jismoniy yoki yuridik shaxs maqomiga ega bo'lish, N.A. Shevelevaning nazdida avtomatik ravishda "soliq to'lovchi"ni yaratmaydi<sup>10</sup>.

Biroq yuqoridagi maqom, bizningcha, "soliq majburiyati sub'ekti"ni yaratadi. Soliq to'lovchini aynan soliq to'lovchi sifatida yuzaga keltiradigan asosiy yuridik fakt qonunda belgilangan soliq solish ob'ektning paydo bo'lishidir. Ta'kidlash joizki, "soliq to'lovchi" atamasi umuman olganda, moliyaviy-huquqiy adabiyotlarda va normativ hujjatlarda qo'llaniladi.

Soliq majburiyati yuzaga kelishi uchun soliq majburiyati manbai – yuridik fakt talab etiladi, qonun uning vujudga kelishini bunday oqibat bilan bog'laydi. Soliq majburiyatini vujudga keltiruvchi yuridik faktlar sifatida huquqiy yoki huquqqa xilof bo'lgan harakatlar bo'lishi mumkin. Bunda soliq huquqiy munosabatlar yaratish maqsadi mavjudligi yoki mavjud emasligi e'tiborga olinmaydi.

Soliq majburiyatlarining manbalari sifatidada: davlat ro'yxatiga qo'yish va soliq solish ob'ektining paydo bo'lishini aytish mumkin.

Normativ hujjatlar huquqiy munosabatlarni vujudga keltirish, o'zgartirish, tugatishga oid yuridik faktlar hisoblanmaydi va G.F. Shershenevich ta'kidlab o'tganidek, qonun barcha huquqiy munosabatlarning umumiy asosini hosil qiladi. Shuning uchun majburiyatning tub ma'nodagi manbai sifatida aytilishi mumkin emas: shartnoma kuchi qonunga asoslanadi, huquqbuzarlik oqibatlari qonun bilan belgilanadi. Shubhasiz, faqat qonunning o'zi, yuridiy faksiz, hech qanday majburiyat yarata olmaydi. Majburiyat birdan hosil bo'la olmaydi, burch (yoki zarurat) hokimiyat kuchiga asoslanadi"<sup>11</sup>.

<sup>10</sup> Шевелева Н.А. Правовой статус налогоплательщиков в российской налоговой системе // Правоведение. 1996. №3(214).

<sup>11</sup> Шершеневич Г.Ф. Учебник русского гражданского права (по изданию 1907 г.). М.: Фирма СПАРК, 1995. С.270.



I.A. Sindeliani ta'kidlaydiki: "Soliqlar va to'lovlar, aslida, davlat bir tomonlama tarzda o'rnatgan va davlat majburlov choralari bilan ta'minlangan moliyaviy-huquqiy majburiyat (burch)dir"<sup>12</sup>.

Soliq to'lovchi tomonidan soliqni to'lashi bilan bog'liq bo'lgan soliq ma'muriyatchiligi, soliqni aniq belgilash va ayni paytda ushbu tushunchaga hozirgi vaqtda nima kiritilayotganini bilishni talab etadi. Soliq ma'lum bir moliyaviy-huquqiy kategoriya tariqasida doimiy ma'muriyatchilikka ehtiyoj sezadi. Bu uning ixtiyoriy to'lanishi, shuningdek soliq nafaqat huquqiy kategoriya, balki iqtisodiy, siyosiy, moliyaviy va ijtimoiy kategoriya ekanligi bilan bog'liq.

Soliqning ixtiyoriy to'lanishi yuridik majburiyat bo'lib, tegishli huquqiy rag'batlar va cheklovlar bilan ta'minlanadi. A.V. Malko yozishicha: "agar huquqiy rag'bat qonunga itoatkor xulq-atvorga da'vat qilsa, huquqiy cheklov qonunga zid xulq-atvorni birmuncha to'xtatib turadi"<sup>13</sup>.

Taqiq huquqiy tartibga solish shakli tariqasida, noqonuniy xatti-harakatlarni amalga oshirishga, xususan, soliqlar to'lanmasligiga to'sqinlik qilib, davlatning majburlov kuchi bilan ta'minlanadi. V.D. Sorokin haqqoniy ravishda ta'kidlaganidek "bunga muayyan darajada, tegishli vaziyatlarda fuqarolik va ma'muriy-huquqiy shakldagi tartib solishning taqiqlari o'z salohiyatini "tugatib bo'lganida", harakatga tushadigan jinoiy taqiq mavjudligi ko'mak berishini tan olmasdan iloj yo'q"<sup>14</sup>.

Soliq majburiyatlarini bajarish, avvalo, soliq to'lovchi tomonidan ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladi. Biroq ma'lum bir bosqichda, soliq organlari o'zlarining soliq ma'muriyatchiligi faoliyatida asosan hokimiyat farmoyishlar (imperativ) usulini qo'llaydi, dispozitiv usul cheklangan tusga ega. Qonunda berilgan vakolatlarga ko'ra, davlat organi yoki mahalliy o'zini o'zi boshqarish organi yuridik hokimiyat vakolatlariga ega va soliq to'lovchi uchun majburiy bo'lgan qarorlar qabul qiladi.

Ko'pchilik tadqiqotchilar, soliqning "majburiylik, shaxsiy evazsizlik, qaytarmaslik negizida jismoniy va yuridik shaxslarning mulkini begonalashtirish shakli", "moddiy ne'matlarni begonalashtirish yo'li bilan konstitutsiyaviy mulk huquqi yoki egalik huquqini cheklash shakli", "ommaviy hokimiyat sub'ektlarining to'lov qobiliyatini ta'minlash maqsadi" kabi va boshqa xususiyatlariga e'tibor bilan qarashadi<sup>15</sup>. Nazarimizda, bu belgilar va soliq ta'riflari uning mohiyatini to'liq aks ettirmaydi, ayrim belgilar esa mavjud qonunchilikka zid.

Agar soliq to'lovchida pul mablag'i bo'lmasa, unda soliq to'lash majburiyati yo'qoladimi? Soliqni olib qo'yish yoki undirishning majburiyligi to'g'risida ham gapirib bo'lmaydi, chunki O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq soliq to'lovchi soliq to'lash majburiyatini mustaqil bajarishi shart.

Davlat soliq xizmati soliqlarni yig'ish bilan shug'ullanadi, degan fikrga ham qo'shilib bo'lmaydi. Ushbu fikr normativ hujjatlar bilan belgilanmagan, ularning asosiy faoliyati soliq va to'lovlar to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi, soliqlar va to'lovlar to'g'ri hisoblanishi,

<sup>12</sup> Цинделиани И.А. Налоговое обязательство в системе налогового права России // Финансовое право. 2005. №9;

<sup>13</sup> Малько А. В. Стимулы и ограничения как парные юридические категории // Правоведение. 1995. №1.

<sup>14</sup> Сорокин В.Д. Правовое регулирование: предмет, метод, процесс // Правоведение. 2000. №4.

<sup>15</sup> Винницкий Д.В. Российское налоговое право: проблемы теории и практики. СПб.:Юридический центр Пресс, 2003. С.251; Налоговое право: Учебное пособие / Под ред. С.Г. Пепеляева. М., 2000. С.31 ва бошқалар.



O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimiga to'liq va o'z vaqtida to'lanishi (o'tkazilishi) va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan hollarda boshqa yig'im va majburiy to'lovlarning to'g'ri hisoblanishi, tegishli byudjetga to'liq va o'z vaqtida kiritilishi ustidan nazorat qilishdan iborat.

Bizning fikrimizcha, soliq davlat tomonidan qonun orqali bir tomonlama joriy etilgan, muayyan miqdorda va belgilangan muddatlarda byudjetga o'tkaziladigan, shaxsga nisbatan evazsiz tusga ega, ixtiyoriy ravishda to'lanadigan yoki majburiy ravishda undiriladigan majburiy pul to'lovidir.

Soliqni to'lash muayyan yuridik faktlar (faktik tarkib) vujudga kelishi bilan bog'liq. Faktik tarkib bu yuridik oqibatlar (huquqiy munosabatlar vujudga kelishi, o'zgarishi, tugallanishi) uchun zarur bo'lgan yuridik faktlar tizimidir.

O.S. Ioffe va M.D. Shargorodskiy fikricha, qonunda nazarda tutilgan huquqiy oqibatlarning kelib chiqishi uchun zarur bo'lgan yuridik faktlar majmuidan iborat yuridik tarkib vujudga kelishi bilan bog'liq<sup>16</sup>.

Jumladan, soliq elementlari faktik tarkib hosil qiladi. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 17-moddasi 1-bandiga muvofiq soliq faqatgina soliq to'lovchilar va soliq solish elementlari belgilab qo'yilganda o'rnatilgan deb hisoblanadi, xususan: soliq solish ob'ekti, soliq bazasi, soliq davri, soliq stavkasi, soliqni hisoblash tartibi, soliqni to'lash tartibi va muddatlari. Soliq solish ob'ekti bu sub'ektning soliq to'lash majburiyatini belgilaydigan yuridik faktlar (harakatlar, hodisalar, holatlar). Soliq solish predmeti atamasi tegishli soliqni undirishni asoslantiruvchi faktik (noyuridik) alomatlarini belgilaydi<sup>17</sup>.

Yuridik faktlarni belgilash masalasi soliqlar ma'muriyatchiligining bir qismi sifatida soliq nazoratini o'tkazishda muhim hisoblanadi.

Zamonaviy qonunchilikda "soliq" so'zi qo'llanadigan yondashuvdan kelib chiqib, soliq tushuncha sifatida ham pul miqdorini – moddiy ob'ektini, ham mulkni begonalashtirish va mulkdorni o'zgartirish bilan bog'liq muayyan protsessual harakat – pul mablag'lari xususiy mulkchilikdan davlat yoki mahalliy hokimiyat mulkiga o'tishida ifodalangan. Shuning uchun ham shu ishda va boshqa tadqiqotchilarning asarlarida "soliqni to'lash" iborasini qo'llash soliq majburiyatini bajarish bilan bevosita bog'liq pul summasini to'lash hamda belgilangan protsessual harakatlarning bajarishni anglatadi.

Soliqning moddiy-huquqiy tabiati, soliqning moddiy mazmuniga mos keladigan, faqat uning o'ziga xos bo'lgan muayyan protsessual qoidalarni taqozo etadi. Jumladan, soliq majburiyatini bajarish soliq organlari tomonidan muayyan protsessual harakatlar bajarilishi bilan birga yuz beradi. Soliq majburiyatini sodda, qulay va tezkor usulda bajarish uchun muayyan tashkiliy sharoitlar yaratiladi.

Protsessual munosabatlar moddiy huquqiy munosabatlar bilan bog'liq holda vujudga keladi, "ularning so'nggilardan hosil bo'lishi to'g'ridan-to'g'ri emas, balki vakolatli sub'ektlarning ma'lum faoliyati orqali kuzatiladi". Soliq ma'muriyatchiligi muayyan faoliyat turi sifatida protsessual faoliyat hisoblanadi.

Soliq ma'muriyatchiligi boshqaruv va tashkillashtirish jarayoni sifatida pul mablag'larini safarbar qilish va soliq munosabatlarini tartibga solishga qaratilgan bo'lib, soliq jarayoni

<sup>16</sup> Иоффе О.С., Шаргородский М.Д. Вопросы теории права. М.: Гос. изд-во Юрид. лит-ра, 1961. С.253.

<sup>17</sup> Налоговое право: Учебное пособие / Под ред. С.Г. Пепеляева. М. 2000. – С.89.



doirasida amalga oshiriladi. Soliq majburiyati – soliq huquqining tarkibiy qismi, soliq majburiyatini tartibga soluvchi huquqiy normalar, sub'ektning soliqlarni to'lash bo'yicha majburiyatini mazkur to'lovning tegishli byudjetga o'tkazish bo'yicha konkret protsessual harakatlariga bevosita o'zgartiradi. Soliq majburiyatini tartibga soluvchi normalar, protsessual harakatlarni rasmiylashtiriladi.

Soliq huquqiy munosabatlar sub'ektlarining huquq va majburiyatlarini amalga oshirish vositalari protsessual shakllar hisoblanadi. Qonun normalari bilan belgilangan protsessual shakl, qonuniylikqa rioya etishga, aniq maqsadga tezkor, tartibli tarzda erishishga ko'maklashadi va muayyan xulq-atvor, harakatlar tartibini o'rnatadi. V.M. Gorshenev va S.V. Zapolskiyning fikricha, soliq huquqiga protsessual huquqning o'ziga xos xususiyatlari xosdir. Bundan tashqari, S.V. Zapolskiy moliyaviy huquqni protsessual huquq sohasi deb hisoblashni taklif qiladi<sup>18</sup>.

Soliq qonunchiligi protsessual normalar tarmog'i bilan qamrab olingan bo'lib, ular yuqori darajada normativ tartibga solingalik bilan tavsiflanadi. Soliq majburiyatini bajarishning o'zi soliq huquqiy munosabatlarning barcha sub'ektlari protsessual xatti-harakatlari majmuidan iborat. Soliq qonunchiligi shunday tarzda shakllanganiki, bir normativ hujjatda mavjud moddiy huquq normalari, soliq huquqiy munosabatlar sub'ektlari tomonidan muayyan xatti-harakatlarni bajarish tartibi va qoidalaridan iborat protsessual normalar asosida amalga oshiriladi.

Ayrim olimlar (V.M. Gorshenev, S.V. Zapolskiy, M.V. Karaseva, P.E. Nedbaylo, P.M. Rabinovich va boshqalar)ning fikriga qo'shilgan holda, yuridik jarayon nafaqat vakolatli organlarning, balki boshqa tashkilotlarning o'z huquq va majburiyatlarini amalga oshirishdan iborat, degan fikrni ilgari surish mumkin. Soliq jarayoni soliq to'lovchi tomonidan o'z soliq majburiyatlarini amalga oshirishiga qaratilgan soliq to'lovchi, soliq agenti va vakolatli davlat organlarining harakatlari ma'lum tartibini aks ettiradi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, soliq majburiyati – bu soliq qonunchiligiga muvofiq vujudga keladigan, shaxs (soliq to'lovchi)ning davlat oldidagi soliqlarni to'lash bo'yicha majburiyati hisoblanib, unga asosan soliq to'lovchi soliq organiga ro'yxatga olinishi, soliq solish ob'ektlarini aniqlashi, byudjetga soliqlar va yig'implarni hisoblashi, soliq hisobotini tayyorlashi, ularni o'z vaqtida taqdim etishi, byudjetga soliqlar va yig'implarni to'lashi lozim.

Soliq majburiyati jamiyatning barcha a'zolari manfaati yo'lida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunchiligi bilan belgilangan konstitutsiyaviy ommaviy-huquqiy majburiyat (burch) hisoblanib, har bir yuridik yoki jismoniy shaxs uchun maqbul xulq-atvor me'yorini o'rnatadi hamda nomaqbul xulq-atvor uchun davlat majburlov choralari bilan ta'minlanadi. Ma'muriyatchilik amaldagi soliq majburiyati bo'lganda soliq majburiyatini bajarishga undash yoki majburlash bo'yicha faoliyat hisoblanadi. Soliq to'lash soliq majburiyatining asosiy qismi bo'lib, qolgan harakatlar esa unga bog'liq va ikkilamchi hisoblanadi.

<sup>18</sup> Запольский СВ. О предмете финансового права // Известия высш. учеб. заведений. Сер.:Правоведение.2002. №5.; Теория юридического процесса / Под общ. ред. В.М.Горшенева. Харьков, 1983. С.93.



## References:

1. Запольский СВ. Дискуссионные вопросы теории финансового права. М : РАП, Эксмо, 2008. – С.115.
2. Винницкий Д.В. Налоговое обязательство и система налогового обязательственного права // Законодательство.2003. №7; Запольский СВ. О системе органов, администрирующих государственные доходы // Субъекты советского административного права: Сб. науч. трудов СЮИ. Свердловск, 1985, Запольский СВ. О предмете финансового права // Известия высш. учеб. заведений. Сер.: Правоведение. 2002. № 5; Карасева М В. Финансовое правоотношение. М.: Издательство НОРМА, 2001. С.271-283; Цинделиани И.А. Налоговое обязательство в системе налогового права России // Финансовое право. 2005. №9; Налоговое право / Под ред. С.Г. Пепеляева. М., 2000. С. 138-139.
3. Кучерявенко Н.П. Налоговая обязанность: Содержание и особенности правового регулирования // Правоведение. 2002. № 5 (244).
4. Винницкий Д.В. Налоговое обязательство и система налогового обязательственного права // Законодательство. 2003. № 7.
5. Карасева М.В. Финансовое правоотношение. М.: Издательство НОРМА, 2001. С.271-283. Гражданское право. Ч.1. Учебник/ Под ред. Ю.К. Толстого, А.П. Сергеева. М.: Изд-во ТЕИС, 1996. – С.13-14.
6. Карасева М.В. Финансовое правоотношение. М.: Издательство НОРМА, 2001. С.271-283. Гражданское право. Ч.1. Учебник/ Под ред. Ю.К. Толстого, А.П. Сергеева. М.: Изд-во ТЕИС, 1996. С.13-14.
7. Винницкий Д.В. Российское налоговое право: проблемы теории и практики. СПб.: Юридический центр Пресс, 2003. С.305.
8. Винницкий Д.В. Налоговое обязательство и система налогового обязательственного права // Законодательство. 2003. №7.
9. Петрова Г.В. Общая теория налогового права. М.: ИД ФБК-ПРЕСС, 2004. – С. 102
10. Шевелева Н.А. Правовой статус налогоплательщиков в российской налоговой системе // Правоведение. 1996. №3(214).
11. Шершеневич Г.Ф. Учебник русского гражданского права (по изданию 1907 г.). М.: Фирма СПАРК, 1995.
12. С.270.
13. Цинделиани И.А. Налоговое обязательство в системе налогового права России // Финансовое право. 2005. №9;
14. Малько А. В. Стимулы и ограничения как парные юридические категории // Правоведение. 1995. №1.
15. Сорокин В.Д. Правовое регулирование: предмет, метод, процесс // Правоведение. 2000. №4.
16. Винницкий Д.В. Российское налоговое право: проблемы теории и практики. СПб.:Юридический центр Пресс, 2003. С.251; Налоговое право: Учебное пособие / Под ред. С.Г. Пепеляева. М., 2000. С.31 ва бошқалар.



17. Иоффе О.С., Шаргородский М.Д. Вопросы теории права. М.: Гос. изд-во Юрид. лит-ра, 1961. С.253.
18. Налоговое право: Учебное пособие / Под ред. С.Г. Пепеляева. М. 2000. – С.89.
19. Запольский СВ. О предмете финансового права // Известия высш. учеб. заведений. Сер.:Правоведение.2002. №5.; Теория юридического процесса / Под общ. ред. В.М.Горшенева. Харьков, 1983. С.93.